

DAVLAT MOLIYA TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA
ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Ro'zmetov Diyorbek Bahrombek o'gli
Alfraganus Universiteti Iqtisodiyot fakulteti
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
yo'nalishi 4-bosqich talabasi
Tel: +998919181981
E-mail: ruzmetovdiyorbek893@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis davlat moliya tizimida mavjud bo'lgan asosiy muammolarni, jumladan, davlat mablag'larini noto'g'ri boshqarish korrupsiya, inflyatsiya, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, moliyaviy savodsizlik va me'yoriy - huquqiy hujjatlardagi kamchiliklarni aniqlash va taxlil qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, ushbu ta'dqiqot ushbu muammolarni hal qilish va davlat moliya tizimining umumiy foyiatini yaxshilash uchun potensial strategiyalar va yechimlarni o'rganada.

Kalit so'zlar: moliya, davlat budjeti, budjetning disbalansi, soliq, iqtisodiy barqarorlik, xalqaro moliya, farmoyish va e'lonlar, integratsiya, strategiya, inflyatsiya.

Bugungi kunda davlat moliya tizimida ko'plab dolzarb muammolar ko'paymoqda. Budjetning disbalansi, daromadlarning kamligi, davlat qarzlarning ortishi, qarz yukining ortishi, soliq yig'imlarining pasligi, inflyatsiya, pul-kredit siyosatining noto'g'ri yuritilishi, global iqtisodiy inqirozlar, tashqi qarzlar, korrupsiya, samarasiz davlat boshqaruvi, tabiiy ofatlar va siyosiy beqarorlik yoki urushlar kabi bu muammolarni oldini olish maqsadida so'ngi yillarda O'zbekistonning davlat moliyasida bir qator muhim o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy tizimni rivojlantirish, davlat byudjetini optimallashtirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiya qilish qaratildi. Davlat moliyasidagi muammolar bir necha omillardan kelib chiqqan va ular bir-biriga bog'liqdir.

Davlat moliyasidagi asosiy muammolarning sabablari:

Budjetning disbalansi: (daromad va xarajatlar o'rtasidagi nomutanosiblik).

Daromadlarning kamligi: Davlatning budjet daromadlari talab qilingan miqdordan kam bo'lishi mumkin. Bunga soliq yig'imlarining kamayishi, soliq to'lovchilarning ko'paymasligi yoki soliq bazasining torayishi sabab bo'lishi mumkin.

Xarajatlarning ortishi: Ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlar (sog'liqni saqlash, ta'lim, infratuzilma, mudofaa va boshqalar) ortib borishi davlat xarajatlarini oshiradi, bu esa byudjetda disbalansga olib kelishi mumkin.

Qarzlarni boshqarishdagi muammolar:

Davlat qarzlarning ortishi: Agar davlatning qarz olish qobiliyati oshib borayotgan bo'lsa va bu qarzar to'lanishidagi qiyinchiliklar yuzaga kelsa, davlat moliyasida muammolar kelib chiqadi. Qarzning ko'payishi, ayniqsa, yuqori foiz stavkalari va o'z vaqtida to'lanmagan qarzar iqtisodiy barqarorlikka xavf solishi mumkin.

Qarz yukining ortishi: Odatda, yuqori davlat qarzlari inflyatsiya, pulning qadrsizlanishi va iqtisodiy o'sishning sekinlashishi kabi salbiy ta'sirlar keltirishi mumkin.

Soliq siyosatidagi muammolar:

Soliq yig'implarining pastligi: Soliq bazasining torayishi yoki soliq yig'ishning samarali tizimi yo'qligi davlat moliyasida qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ba'zi davlatlarda soliq to'lovchilarni oshirish yoki soliq evaziga haqiqiy daromadlarni yig'ish qiyin bo'lishi mumkin.

Soliq samaradorligining pasayishi: Agar soliq tizimi noto'g'ri tashkil etilgan bo'lsa yoki soliq yig'ish tizimida korrupsiya mavjud bo'lsa, bu davlat moliyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Inflatsiya va pul-kredit siyosati:

Inflyatsiya: Inflyatsiya yuqori bo'lsa, davlatning xarajatlarini oshiradi (masalan, ijtimoiy to'lovlar yoki ish haqlarini ko'paytirish zarurati paydo bo'lishi mumkin), shuningdek, davlat qarzlarning foizlari oshadi, bu esa moliyaviy holatni og'irlashtiradi.

Pul-kredit siyosatining noto'g'ri yurutilishi: Markaziy bankning pul-kredit siyosati (masalan, yuqori foiz stavkalari yoki notog'ri monetar siyosat) ham davlat moliyasiga ta'sir qiladi. Yomon boshqarilgan pul siyosati inflyatsiyani oshirib, iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin.

Global iqtisodiy va tashqi omillar:

Global iqtisodiy inqirozlar: Xalqaro bozorlardagi inqirozlar (masalan, neft narxlarining tushishi, pandemiya yoki iqtisodiy regressiya) davlat moliyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday holatlarda eksportning kamayishi, importning qimmatlashishi yoki valyuta kursining o'zgarishi budjet daromadlariga salbiy ta'sir qiladi.

Tashqi qarzarlar: Davlatning tashqi qarzlariga bog'liqligi, valyuta kursining o'zgarishi yoki xalqaro bozorlar tomonidan qarzar bo'yicha shartnomalar yangilanishi ham davlat moliyasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Korrupsiya va ma'muriy xato:

Korrupsiya: Davlat moliyaviy resurslarining noto'g'ri boshqarilishi yoki korrupsiya mavjudligi budjetdan foydalanishni samarali qiladi. Bu, o'z navbatida, davlat moliyasining zaiflashishiga olib keladi.

Samarasiz davlat boshqaruvi: Davlat moliyasini boshqarishdagi xatolar yoki

noto'g'ri qarorlar (masalan, ortiqcha yoki keraksiz loyihalarga mablag' sarflash) ham muammolarga olib kelishi mumkin.

Tabiiy ofatlar yoki keskin ijtimoiy voqealar:

Tabiiy ofatlar: Yirik tabiiy ofatlar (yong'in, sunami, zilzila va boshqalar) iqtisodiy tizimni buzishi va davlat moliyasiga katta yuk solishi mumkin. Ushbu holatlarda davlat xarajatlarini tezda oshirish kerak bo'lishi mumkin.

Siyosiy beqarorlik yoki urushlar: Siyosiy beqarorlik yoki harbiy harakatlar davlat moliyasiga ta'sir qiladi, chunki bu holatlar ko'pincha xarajatlarni oshiradi va iqtisodiy o'sishni to'xtatadi.

Bularning barchasi davlat moliyasidagi muammolarni keltirib chiqaradigan omillar bo'lib, ularni hal qilish uchun samarali siyosatni rejalashtirishimiz zarur.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat moliyasini, iqtisodiy barqarorlik va moliya tizimini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratib bir qancha qarorlar qabul qilib, farmoyishlar elon qildilar va konstitutsiyaga ham o'zgarishlar kiritdilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan „2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida“gi qarori 2019-yil 30-dekabrda tasdiqlandi. Prezidentimiz ham o'zining ommaviy chiqishlarida: „Moliya shaffof bo'lishi kerak. Bizning asosiy maqsadlarimiz - budjet mablag'larini isrof qilishdan himoya qilish, ularni faqat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirishdir. Bizning vazifamiz - moliya tizimini yanada zamonaviylashtirish, bank tizimini kuchaytirish, kreditlashni takomillashtirish va kichik biznesni qo'llab quvatlashdir“ deganlar. Prezidentimiz 2023-yil 8-dekabrda konstitutsiyaning 23,60,64,98,121 moddalariga moliya sohasiga oid o'zgarishlar kiritdilar. Davlat moliyasini yaxshilash uchun bir nechta strategiyalarni amalga oshirilgan. Bu strategiyalar davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga qaratilgan.

Davlat moliyasini yaxshilashga qaratilgan ba'zi asosiy strategiyalar:

Budjetni samarali boshqarish.

Budjet disbalansini kamaytirish: Davlat budjetining daromad va xarajatlar o'rtasidagi muvozanatini ta'minlash uchun davlat xarajatlarini optimallashtirish va daromadlarni oshirish zarur. Bu soliq siyosati va xarajatlarni boshqarish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Xarajatlarni prioritetlash: Davlatning resurslarini samarali taqsimlash uchun eng muhim va zarur loyihalar va ijtimoiy dasturlarga e'tibor qaratish kerak. Masalan: ijtimoiy himoya, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarga mablag' ajratish.

Soliq siyosatini isloh qilish.

Soliq tizimini modernizatsiya qilish: Soliq yig'ishning samaradorligini oshirish

uchun soliq tizimining oson va adolatli bo'lishi kerak. Yangi soliq bazalarini yaratish, soliq evazini kuchaytirish va soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish tizimini takomillashtirish mumkin.

Soliqning kengaytirilgan bazasini yaratish: Soliq bazasini kengaytirish orqali daromadlarni oshirish va soliq to'lovchilarni yanada kengaytirish (masalan, informal sektordan soliq yig'ishni ko'paytirish).

Qarz va qarz boshqaruvini yaxshilash.

Qarzni oqilona boshqarish: Davlatning qarz yukini boshqarishda ehtiyotkorlik zarur. Qarzlarni o'z vaqtida to'lash va qarzning tarkibini diversifikatsiya qilish orqali foiz to'lovlarini kamaytirish mumkin.

Ijtimoiy investitsiyalarni rag'batlantirish: Davlatning qarzlari ko'payishining oldini olish uchun ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish. Masalan: davlat-xususiy sherikchilik (PPP) modellarini qo'llash.

Pul-kredit siyosatini mustahkamlash.

Inflyatsiyani boshqarish: Markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilish va pul ta'minotini barqarorlashtirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishi kerak. Inflyatsiya darajasining oshishi davlatning xarajatlarini oshirishi mumkin, shuning uchun inflyatsiyani boshqarish muhim.

Faiz stavkalarini optimallashtirish: Iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash uchun foiz stavkalarini pasaytirish yoki inflyatsiyaga mos ravishda sozlash kerak.

Korrupsiyaga qarshi kurash va moliyaviy shaffoflikni oshirish.

Korrupsiyani kamaytirish: Korrupsiyaga qarshi kurashish davlat moliyasini yaxshilashning muhim qismi hisoblanadi. Korrupsiyani kamaytirish uchun mustahkam qonunchilik, aniq va shaffof tender jarayonlari va audit tizimlarini o'rnatish kerak.

Moliyaviy shaffoflikni oshirish: Davlat budjeti, qarzar va xarajatlar bo'yicha shaffoflikni oshirish, fuqarolar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda monitoring va baholash tizimlarini joriy etish.

Iqtisodiy o'sish va diversifikatsiyani rag'batlantirish.

Iqtisodiy diversifikatsiya: Davlat moliyasini mustahkamlash uchun iqtisodiyotning turli sohalariga sarmoya kiritish zarur. Energetika, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va texnologiya sohalarini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mumkin.

Yangi sanoat va sektorlarga investitsiya: Davlat iqtisodiyotining qisman neft yoki boshqa resurslarga bog'liq bo'lishini kamaytirish uchun yangi sanoat tarmoqlariga va innovatsion sohalarga (masalan, yuqori texnologiyalar, xizmatlar sektori) investitsiyalarni oshirish zarur.

Samarali ijtimoiy siyosatni amalga oshirish.

Ijtimoiy xavfsizlikni mustahkamlash: Ijtimoiy yordam dasturlarini samarali tashkil etish, ayrim ixtisoslashgan sohalarda davlat xarajatlarini kamaytirish va arzon,

sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlariga investitsiya: Ushbu sohalarga kiritilgan investitsiyalar uzoq muddatda iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi va davlatning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlik: Davlat xalqaro tashkilotlar, masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va boshqa donorlar bilan hamkorlikda budjetni boshqarish, qarzlarni qaytarish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yordam olish mumkin.

Savdo va investitsiyalarni rag'batlantirish: Xalqaro savdo bitimlari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali davlat moliyasining mustahkamlanishiga erishish mumkin.

Raqamli transformatsiya va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: Davlatning moliyaviy boshqaruvini raqamlashtirish, elektron soliq yig'ish tizimlarini joriy etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish.

Innovatsiyalarni rag'batlantirish: Startaplar va innovatsion bizneslarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni oshirish va yangi ish o'rinlarini yaratish.

Davlat moliyasini yaxshilash uchun yuqoridagi strategiyalarni amalga oshirishimiz zarur. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki davlatning moliyaviy barqarorligini, ijtimoiy farovonlikni va global raqobatbardoshligini oshiradi. Har bir strategiya davlatning aniq iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga qarab moslashtirilishi lozim. Hozirgi kunda O'zbekistonda inflyatsiya muammosi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda jiddiy to'siqlarni yaratmoqda. Inflyatsiya muammosi bir necha omillar: talabning oshishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'tarilishi, pul miqdorining ortishi va xalqaro bozorlardagi o'zgarishlar kabi sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Bu sabablar birgalikda katta muammoga aylanib inflyatsiyaning rivojlanishiga olib keladi va iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi.

Inflyatsiya muammosini oldini olish uchun kompleks va samarali iqtisodiy siyosat zarur. Inflyatsiya muammosiga: pul siyosatini tartibga solish, iqtisodiy siyosatni kuchaytirish, narx nazoratini o'rnatish, mehnat bozorini mustahkamlash, ishlab chiqarish va ta'minot zanjirini mustahkamlash, xalqaro savdo va iqtisodiy aloqalarni yaxshilash va barqaror valyuta kursini ta'minlash kabi choralar inflyatsiya bosimini kamaytirishga yechim bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat moliya tizimidagi yuqorida nomlari zikir etilgan muammolar va ularga yechim bo'yicha quyidagilarni ilgari suramiz:

Davlat budjeti bo'yicha axborotning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolarga budjetda nima uchun va qanday mablag' sarflanayotganini tushuntirishimiz, davlat qarzlarini to'g'ri boshqarish va ularni kamaytirish bo'yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish kerakligi, yangi soliq turlari kiritish, soliq to'lovchilarni raqamli tizimlar orqali ro'yxatga olish va soliq to'lashni yanada osonlashtirishimiz, soliq tizimining tengsizlikni kamaytiruvchi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi bo'lishi lozimligi, davlat xarajatlari bo'yicha auditlar o'tkazish va ularni samarali taqsimlash, resurslardan maksimal darajada foydalanishimiz, korrupsiyaning oldini olish va uni kamaytirish uchun keng qamrovli siyosatlarni amalga oshirishimiz va davlat xarajatlari va moliyaviy operatsiyalarni yanada shaffof qilish kerakligi, Markaziy bankning moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini kuchaytirishimiz va pul-kredit siyosatini yanada samarali boshqarishimiz, bank tizimining mustahkamligini ta'minlash va uning xalqaro standartlarga muvofiqligini tekshirib bu orqali moliya tizimidagi inqirozlar oldini olish mumkinligi, raqamli to'lovlar, blokcheyn texnologiyalari va elektron soliq tizimlarining rivojlanishini, davlat moliya tizimida ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va tizimli nazoratni yaxshilash uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etishimiz, Xalqaro moliya institutlari va investorlardan mablag'larni jalb qilish, iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan investitsiyalarni ta'minlashimiz, boshqa davlatlar bilan moliya tizimi sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va global moliyaviy inqirozlarning oldini olishimiz, fuqarolarni davlat moliya tizimi, soliq to'lash va iqtisodiy masalalar bo'yicha o'qitish, ularga moliyaviy jarayonlar haqida xabardorlikni oshirish va davlat moliyaviy boshqaruvchilarining malakasini oshirish va ularga zamonaviy moliyaviy boshqaruv metodlarini o'rgatishimiz kerakligini ilgari suramiz. Davlat moliya tizimining samaradorligini oshirish, muammolarga yo'l qo'ymaslik va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zaruriy choralar hisoblanadi.

Bular orqali O'zbekistonimiz moliya tizimida yanada rivojlanadi, yuksaladi, iqtisodiy o'sadi, xalqning turmush darajasini yaxshilaydi va gullab yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr.
- 2.2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirzoyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasi.
- 4.Nurmuhammedova B, Kabirova N., Moliya". O'quv qo'llanma. T..•.,IQTISOD-MOLIYA", 2017-yil.
- 5.www.mf.uz-O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb-sayti
- 6.XalqtaLiminfo
- 7.President.uz